

“O‘ZBEK MODELINING” SHAKLLANISH TARIXI VA UNING DAVLAT QURILISHIDA TUTGAN O‘RNI (1992–2000)

Mamatjonova Mehribonu Oybek qizi

Millat Umidi universiteti “Moliya va buxgalteriya” fakulteti 1-bosqich talabasi

Email: mamatjonovamehribonu1@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbekiston mustaqillikka erishgach bir alohida davlat bo‘lib davom etishida uzoq muddatli dastur kerak edi. Islom Karimov esa bu o‘ziga xos yo‘lni “O‘zbek modeli” deb atadi va beshta tamoyil asosida tashkil etdi. U iqtisodiyotni bosqichma-bosqich ishlab chiqish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va boshqa maqsadlarni o‘z ichiga olgan edi. Natijada keyingi o‘n yilda barqaror rivojlanish, milliy valyuta, bozor iqtisodiyotiga o‘tish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta yutuqlarga erishdi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek modeli, konstitutsiya, ish bilan bandlik, ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyoti, valyuta

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qanday yo‘llarni tanladi? Umuman, o‘sha 1991-yillarda mustaqillikka erishgan davlatda e‘tibor beriladigan eng muhim masalalardan biri – o‘z taraqqiyot yo‘lini aniqlash edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda yangi jamiyat tamoyillariga mos kelmas edi. Mulkka egalik qilish, uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari hamda bozor mexanizmlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yangicha asosda yo‘lga qo‘yishni talab qildi. Shuningdek, jahonda barcha mamlakatlar uchun yagona ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarish andozasi mavjud emas. Shu sababli O‘zbekiston o‘zining milliy taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqish harakatini boshladi. Bu jarayon mamlakatning tarixiy, madaniy, va milliy qadriyatlariga asoslangan holda amalga oshirildi.

O‘zbekiston qadimiy madaniyati va boy tarixiy tajribasiga tayangan holda o‘ziga xos yo‘lni tanlashga kirishdi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, oyoqqa turish va rivojlanishga majbur edi. Shu bois respublika o‘z taraqqiyot modelini ishlab chiqish jarayonida bir qator obyektiv sabablarga duch keldi. Bularning eng asosiylaridan biri – jahonda barcha davlatlarga mos keladigan tayyor rivojlanish andozasining yo‘qligi edi. Ikkinchi tomondan, sobiq ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi endilikda yangi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos kelmas edi.

Demak, har bir davlat demokratik yo‘ldan borar ekan, o‘z taraqqiyot yo‘lini mustaqil ishlab chiqishi zarur edi.

O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini belgilashda Islom Karimovning o‘rni

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbar sifatida mamlakat taraqqiyot yo‘lini belgilashda ikki asosiy yo‘nalishga tayanib ish yuritdi: Rivojlangan mamlakatlarning ko‘p asrlik tajribasini o‘rganish va bizga ma‘qul jihatlarini o‘zlashtirish. O‘zbekiston xalqining turmush tarzi, mentaliteti va an‘analariga tayanish. Islom Karimov tomonidan taklif etilgan besh asosiy tamoyil O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lida asosiy yo‘nalish sifatida qabul qilindi. Bu tamoyillar keyingi yillarda mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida amalga oshirilgan islohotlar uchun poydevor bo‘ldi.

Birinchisi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi birinchi tamoyil edi. Islom Karimov avval iqtisod, keyin siyosat degan fikrni bildirgan. Boshqacha qilib aytganda, u iqtisodiyotning siyosatdan ustunligini nazarda tutgan. O‘zbekiston SSSR‘dan mustaqil bo‘lib chiqdi, lekin uning iqtisodiy holati tarang edi.

Ikkinchi tamoyil – davlat bosh islohotchi. Barcha islohotlarda davlat yetakchiligiga e‘tibor qaratiladi va jamiyatda har bir sohada uning ustuvorligi ta‘minlanadi. “O‘tish davrida davlat xalq xo‘jaligining, ayniqsa uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi lozim” – I.A. Karimov.

Uchinchidan, jamiyat hayotida qonunning ustuvorligi. Hozirgi demokratik vaziyatda, ayniqsa yoshlar aholining 60 foizdan ko‘prog‘ini tashkil qilganligi sababli, ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilish zarur. Nafaqat yoshlar, balki nogironlar, boquvchisini yo‘qotganlar, kam ta‘minlangan oilalar, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoya qilish yuzasidan oldindan ta‘sirchan choralar ko‘rilishi ko‘zda tutilgan edi.

To‘rtinchi tamoyil – kuchli ijtimoiy siyosat. Buning asosiy maqsadi yangi ish o‘rinlarini yaratish, sog‘liqni saqlash, xalq ta‘limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalariga mablag‘ ajratish, yoshlarni shu yo‘nalishda rag‘batlantirish uchun qo‘llab-quvvatlashdir. “Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa nogironlar, boquvchisini yo‘qotganlar, kam ta‘minlangan oilalar, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoya qilish yuzasidan oldindan ta‘sirchan choralar ko‘rilishi lozim”.

Beshinchi tamoyil – bozor iqtisodiyoti. Bu tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, reja va nazorat asosida rivojlantiriladi. Masalan, davlat mablag‘idan samarali foydalanish, mulkchilik shakllarni bosqichma-bosqich rivojlantirish kabi imkoniyatlar yaratildi. Hammasini asta-sekin, puxta o‘ylab qilish kerak. Masalan, ishlab chiqarish, moliya va ish o‘rinlarini asta-sekin rivojlantirish orqali mablag‘larni tejash, odamlarni ishga safarbar qilish osonlashadi, ijtimoiy muammolar kamayadi va mulkchilik shakllari ham

asta-sekin rivojlantadi. Agar buni birdaniga qilinsa, odamlar tayyor bo‘lmaydi va muammolar ko‘p yuzaga keladi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishda davlat bosh islohotchi, iqtisodiy qayta ko‘rishlarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqdi. “Bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlat bosh islohotchi bo‘lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o‘zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur” - deb ta’kidlagan O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida O‘zbekistonda davlat quyidagi asosiy iqtisodiy vazifalarni bajardi:

- kredit, soliq va byudjet tizimini tartibga solish;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkdorlar va xo‘jalik subyektlari huquqlarini kafolatlash;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash;
- monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish va raqobat muhitini yaratish;
- ilm-fan va axborot texnologiyalarini rivojlantirish;
- faol tashqi iqtisodiy siyosat yuritish;
- umumdavlat ahamiyatiga ega ishlab chiqarish, ijtimoiy va ekologik infratuzilmani rivojlantirish;
- kam ta’minlangan aholi guruhlarini ijtimoiy himoyalash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibini optimallashtirish;
- mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash;
- bozor munosabatlarining huquqiy asoslarini yaratish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

I. Karimov taraqqiyotning O‘zbek modelini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga asosiy e’tiborni qaratdi. “Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish – bosh vazifadir, - deb uqtiradi Prezident, - O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir”.

Yaqin o‘tmishga qarab shuni ta’kidlash mumkinki, haqiqatan ham, mustaqillik qo‘lga kiritilgan davr o‘ta murakkab bo‘lib, u paytda Sobiq Ittifoq parokandalikka yuz tutgan, mamlakatimizda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat tobora keskin tus ola boshlagan edi. Istiqlolimizning ilk yillaridayoq, Prezidentimiz yuksak demokratik talablarni hayotimizga to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyatini barpo qilish, farovon hayotga erishish bilan

chambarchas bog‘liq va uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini ta’kidlab, bunday darajaga ko‘tarilish hech qachon osonlikcha kechmasligini uqtirib o‘tgan edi.

I.A.Karimov O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lil risolasida mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib, O‘zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o‘zagi sifatida 5 ta asosiy tamoyilni belgilab berdi. Ilmiy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bu dastur nafaqat o‘sha davrdagi avlod taqdiri, balki kelajak avlodlarimiz taqdirini ham o‘ylab tuzilgan bo‘lib, eski tuzumdan meros bo‘lgan illatlarni tezroq bartaraf etish, mamlakatimizning rivojlangan, madaniyatli davlatlar darajasiga chiqib olishini ta’minlashni ko‘zda tutgan edi. Bu haqiqatan ham Prezidentimiz nomi bilan bevosita bog‘liq holda jahonga tanilgan taraqqiyotning o‘zbek modeli edi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish huquqiy, ma’muriy va iqtisodiy usullar bilan birgalikda olib borildi. Turli mulk shaklidagi korxonalar va bozor institutlarining (bank, birja, aksionerlik jamiyatlari) faoliyat ko‘rsatishi me’yorlarini ta’minlovchi, bozor sharoitiga mos yangi soliq, sug‘urta, aholini ijtimoiy himoyalash, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, raqobat muhitini yaratish, kichik va xususiy biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunlar tizimi yaratildi. Iqtisodiy faoliyatning alohida sohalarini boshqarish ta’kiklash, ruxsat berish va majburiy chora-tadbirlar orqali amalga oshirildi. Ma’muriy yo‘l bilan monopolist korxonalar va ijtimoiy ahamiyati yuqori mahsulot narxlari ustidan davlat nazorati o‘rnatildi. Alohida tovarlar eksport va import kvotalari o‘rnatildi. 1998–2010 yillarda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilish maqsadida 2,5 trillion so‘m mablag‘ sarflandi. O‘zbek modelining yana bir xarakterli tamoyili qonun ustuvorligini yoki ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini ta’minlash bilan bog‘liqdir. Chunki bozor munosabatlarining o‘ziga xos qonun va qoidalar bo‘lishi tabiiy. Xorijda bunday tartib va qoidalar bir necha yuz yillar mobaynida shakllanib, takomillashib kelgan. Ularni inkor etish yoki mensimaslik – xato. Global iqtisodiyotga integratsiyalashuv ham aynan shuni – ularga rioya etishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bir xil muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir” deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Kuchli ijtimoiy siyosat O‘zbek modelining asosiy tamoyillaridan biri. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining kam ta’minlangan ijtimoiy himoyaga muxtoj qismini qo‘llab-quvvatlashdir. Bu tamoyil, birinchidan, o‘zbek xalqining mentalitetidan, tarixiy madaniy

qadriyatlaridan kelib chiqsa, ikkinchidan, o‘tish davrining dastlabki bosqichidagi aholi tarkibi, bozor islohotlari aholi turmush darajasi hali ancha past holda saqlanib turgan sharoitda boshlanganligini ham nazarda tutadi. Bu vaqtda O‘zbekiston aholisi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlar, ish haqi miqdori, oziq-ovqat mahsulotlari, zarur hayotiy ehtiyoj buyumlari, uy-joy, ijtimoiy-madaniy muassasalar, maishiy xizmat bilan ta‘minlanish darajasi bo‘yicha Sobiq ittifoq respublikalari o‘rtasida oxirgi o‘rinlardan biriga tushib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “shok terapiyasi” to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emasligini, “bozor ko‘pchilik uchun ozor” bo‘lmasligini, O‘zbekistonga xalqimizning nogironlar, nafaqadorlar, ko‘p bolali oilalar, o‘quvchilardan iborat nochor tabaqalarini avaydigan bozor kerakligini qayta-qayta ta’kidladi. “Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo‘lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi...” deb alohida uqtirib o‘tdi.

Bu ishlar orqali ko‘rish mumkinki, mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan yutuqlar davlatimiz rahbari Islom Karimov rahbarligida olib borilgan islohotlar va iqtisodiy o‘zgarishlar natijasidir. Shu yillarda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, bozor munosabatlariga o‘tish va modernizatsiya qilish borasida aniq, puxta reja tuzilgan edi. 90-yillarda sobiq SSSRdan qolgan iqtisodiyotimiz juda qiyin ahvolda edi: faqat paxtaga asoslangan, xom ashyo yetkazib berishga bog‘liq bo‘lgan tizim edi. Qashshoqlik keng tarqalgan, xalq sabri tugagan, vaziyat portlash xavfiga yaqin edi. Shunday murakkab paytda rahbarimizning mardligi va uzoqni ko‘ra olishi bizni barqaror rivojlantishga olib chiqdi. Shu tariqa, “o‘zbek modeli” deb ataladigan yo‘l shakllandi. Bu modelda asosiy tamoyillar shular: iqtisodiyot siyosatdan ustun, davlat bosh islohatchi rolida, qonun ustuvorligi jamiyatda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish. Natijada, xalqimizning milliy davlatchiligi mustahkamlandi, iqtisodiyot izchil rivojlana boshladi va mamlakatimiz barqaror yo‘lga kirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, 2003
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. Islom Karimov “O‘zbekiston”, 1996
4. N. To‘xliyev “Taraqqiyotning o‘zbek modeli”, 2012
5. Islom Karimov “O‘zbekiston bozor munosabatiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”